

Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro davlat universiteti professori

Abdusalomova Husnora Ahror qizi
Buxoro davlat universiteti
madaniyatshunoslik mutaxassisligi
magistranti
abdusalomovahusnora298@gmail.com

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA EKOLOGIK MADANIYATNI TARBIYALASH YO'LLARI

Annontasiya. Ushbu maqolada milliy qadriyatlar asosida insonlarda ekologik madaniyatni shakllantirish, inson va tabiat o'rtasidagi mavjud bo'lgan uyg'unlik, xalqning tarixiy va ma'naviy dunyoqarashi, shuning bilan birgalikda, qadriyatlarning o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, oilada, ta'lim va tarbiyada, hamda jamiyatda milliy qadriyatlarga tayangan holda ekologik madaniyatni tarbiyalash yo'llarining zarurligi singari masalalar talqin etilgan.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, oila, ekologik madaniyat, ekologik muammo, ekologik tarbiya, oilaviy an'analar, ekologik qadriyatlar, ekologik ong, barqaror rivojlanish, biologik xilma-xillik, atrof-muhit.

ПУТИ ВОСПИТАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование экологической культуры человека на основе национальных ценностей, существующей гармонии человека и природы, исторического и духовного мировоззрения народа, а следовательно, роли и значения ценностей. Также освещены такие вопросы, как необходимость формирования экологической культуры в семье, образовании и воспитании, обществе, основанном на национальных ценностях.

Ключевые слова: Национальные ценности, семья, экологическая культура, экологическая проблема, экологическое образование, семейные традиции, экологические ценности, экологическое сознание, устойчивое развитие, биоразнообразие, окружающая среда.

WAYS OF EDUCATING ECOLOGICAL CULTURE ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES ABSTRACT

Annontation. This article discusses the formation of ecological culture in people on the basis of national values, the existing harmony between man and nature, the historical and spiritual worldview of the people, and therefore, the role and importance of values. Also, issues such as the need for ways to educate ecological culture in the family, in education and upbringing, and in society based on national values are analyzed.

Keywords: National values, family, ecological culture, ecological problem, ecological education, family traditions, ecological values, ecological consciousness, sustainable development, biodiversity, environment.

Kirish. Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan, global darajagacha ko'tarilgan ekologik muammolar mavjud. Atmosferaning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, global isish, biologik xilma-xillikning kamayishi, tabiiy muhitlarning yo'qolishi inson faoliyatining oqibatlarini bilan bevosita bog'liqdir. Bunday muammolar, albatta o'z-o'zidan vujudga kelmasligi ham hech kimga sir emas. Insoniyatni tashvishga solayotgan ekologik muammolar atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatsiz munosabatlar natijasida tabiatning ifloslanishi, resurslarning behuda sarf etilishi, o'z navbatida

ekologik muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, insonlar o'zlarining tabiat o'rtasidagi uyg'unligini anglasa, tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lsa, ekologik tarbiya ham samarali yo'lga qo'yilsa maqsadga muvofiqdir. Bu esa har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan jamiyatimizda ham ekologik madaniyatni yanada rivojlantirish, milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'un holda shakllantirish, ekologik tarbiyani muhim ahamiyat deb qarashimiz kerak.

Asosiy qism. O'zbek xalqining qadimiy qadriyatlarida tabiatga nisbatan hurmat oilaning ajralmas qismi bo'lib qolmay, o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan. Ajdodlarimizning tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanish qoidalari asosida sug'orish tizimlarini barpo qilishgan, ya'ni tabiiy suv aylanishiga zarar etkazilmagan. Bu esa dehqonchilik va chorvachilikda ekologik muvozanatni tartibga solib turgan. Ekin maydonlarini almashib ekish natijasida er unumdorligi saqlanib qolingan. Ajdodlarimizning dunyoqarashlarida tabiatga nisbatan ehtiromning bo'lganligi, tabiatni, hayvonot va o'simlik dunyosini asrab-avaylash, daraxt ekish, suvni behudaga isrof qilmaslik singari g'oyalar keng targ'ib qilingan. "Yer — ona, suv — hayot, daraxt — or-nomusimiz" kabi hikmatli so'z ham o'z navbatida, xalqning tafakkurida ekologik ongining chuqur ildiz topganligidan namoyon bo'ladi. Ekologik madaniyatning tarixiy shakllanishi sifatida masjid va madrasalar atrofida bog'lar, gulzorlar barpo etilgan. Suv havzalarining tozaligini saqlash kabi masalalar ham diniy, ham axloqiy majburiyat hisoblangan.

O'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarida mavjud bo'lgan ekologik g'oyalar ham o'z navbatida xalq maqollari, ertak va afsonalarda tabiatni asrash g'oyalari bilan mujassamlanganligini guvohi bo'lamiz. Milliy qadriyatlarning mazmunida ekologik madaniyatning ildizlari yotadi. Ajdodlarimiz bolalikdan "suv bor joyda hayot bor" degan hikmatlar bilan ulg'aygan. Bu esa ekologik madaniyatning bir ko'rinishi sifatida qadimiy va milliy asoslarning mavjudligini o'zida namoyon etadi.

Xalq donishmandligi asosida aytilgan "Serdaraxt qishloqni sel olmas", "Sabr bilan xor guliston bo'lar, sho'r zamin bog' bilan bo'ston bo'lar" kabi maqollar ham chuqur ramziy ma'noga ega. Ushbu maqollar xalqning hayotiy tajribasi asosida, sabr—toqati, tabiatga hurmat bilan qarash singari g'oyalar jamiyatning farovonligi va obodonligining asosi sanalgan.

Har yili tabiat uyg'onishi — Navro'z bayrami bo'lishidan oldin qishloqlarda, ko'cha va mahallalarda hashar uyushtirilganligi ham milliy qadriyatlarimizning davomiy tarzda avlodlarga o'tib kelayotganligi esa yosh avlodning milliy ruhda tarbiyalashda tayanch bo'lmoqda.

Ekologik madaniyat — bu insonning tabiatga nisbatan munosabati, mavjud bo'lgan ekologik bilimlari va qadriyatlar tizimini namoyon qilishi orqali atrof—muhitni muhofaza etishiga bo'lgan faoliyatining yuksak ko'rinishi. Inson tabiatning bir bo'lagi hisoblanar ekan, o'z o'rnida tabiat va atrof-muhitga nisbatan ongli va mas'uliyatli bo'lishi kerak. Shu bois eng avvalo, ekologik tarbiyaning shakllanishida dastlabki maktab sifatida oila birinchi ijtimoiy muhit sanaladi. Bu muhit esa eng muhim tarbiya maskani bo'lib, shaxsning tabiatga bo'lgan munosabatini ongli ravishda shakllantirib boradi. Shakllanib borgan tarbiya asosida bolada ekologik mas'uliyat tabiiy ravishda o'zlashtiriladi.

Farzandda tabiatga bo'lgan ekologik ongini to'g'ri shakllantirib borish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosiga ozor bermaslik, ularni asrab-avaylashi, chiqindilarni esa to'g'ri kelgan joyga emas, balki maxsus qutilarga tashlashlari singari tabiatni asrashga qaratilgan tarbiya yo'llarini erta yoshdan singdirib borish kerak. Yuzaga chiqqan ekologik bilim natijasida ekologik madaniyatning tayanch fazilatlarini ham namoyon bo'lib boradi.

Ekologik madaniyat insonning tabiatga nisbatan munosabati, xatti-harakatida va so'zlarida aks etadi. Har qanday xalqning ekomadaniyati dunyoqarashlarida, milliy urf-odat va qadriyatlarida, shuning bilan birgalikda e'tiqodlarida namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining milliy urf-odatlari, masalan birgina jamoaviy tozalik va obodonlashtirish ya'ni "hashar" bilan ham tabiatga bo'lgan amallari orqali ifoda eta oladi. Hashar — ko'pchilikning ixtiyoriy tarzda atrof-muhit va tabiatga bergan ko'magi sifatida xalqimizga xos bo'lgan qadimiy udumi hisoblanadi va azaliy urf-odatlarimizdan biri sanalib, insonlarning tabiatga bo'lgan mas'uliyatli munosabatlarini o'zida namoyon etadi. Xalqimizga xos bo'lgan bu qadimiy udum bugungi kunga qadar ham o'z

ahamiyatini yo'qotmagan. Hasharda insonlar ko'pchilik bo'lishib jamoaviy tarzda xayriya ishlarida qarovsiz qolgan er maydonlarini tartibga keltirishadi. Obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi, gullar, nihollar ekiladi, daraxtlar esa oqlanib, chiqindilar bilan to'lgan ariqlar tozalanib qaziladi. "Hashar - elga yarashar" deya aytilgan maqol ham aynan xalqimizning asrlar davomida saqlanib to bugungi kungacha davom etib kelayotgan ezgu fazilatlarini ko'rsatuvchi, ijtimoiy an'analarni o'zida namoyon etuvchi, birdamlikni mustahkamlovchi ekanligini guvohi bo'lamiz.

Hashar uyushtirishning asosiy maqsadi yashil muhitni saqlash orqali ekologik madaniyatning amaliy ko'rinishi sifatida atrof-muhitga va tabiatga bo'lgan mehr-muhabbatni o'zida ifodalaydi. Hashar o'z navbatida insonlarda mavjud bo'lgan ekologik tarbiyaning milliy shaklidir.

Milliy qadriyatlar orqali barqaror bo'lgan ekologik tarbiya insonda tabiatga bo'lgan mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Shuning bilan birgalikda, ekologik ong va ekologik madaniyat ham shakllanib boradi. Tozalikni saqlash, atrof- muhitni, tabiatni asrash odobi ham ekologik qadriyat namunasi sifatida ma'naviy tarbiya qay darajada ekanligidan dalolat beradi. Tabiiy resurslarni tejash, ekologik muvozanatning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, tabiatga nisbatan beparvo munosabatda bo'lmaslik, xalqona an'alarimiz va milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'un holda ekologik madaniyat ham mustahkamlab borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek xalqining "Daraxt ek, soyasida o'tirgan seni duo qiladi" deya aytilgan maqoli ham bejiz aytilmagan. Birgina shu maqol orqali xalqning dunyoqarashida ekologik tafakkur tarbiya ildizi sifatida namoyon bo'ladi. Ammo bugungi kunga kelib, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi muammoning o'rta chiqqanligi ekologik muvozanatning buzilishiga sababchi bo'lmoqda. Daraxtlarning kesilishi, suv havzalarining ifloslanishi singari ishlar ham insonlar tomonidan amalga oshirilyapti. Bu kabi holatlar esa nafaqat tabiatga, balki xalqning ma'naviy, madaniy dunyosiga ham ta'sir etadi. O'z navbatida ekomadaniyat darajasi yuqori bo'lgan jamiyatda insonlar chiqindilarni kamaytiradi, hayvonot va nobotot dunyosiga zarar etkazmaydi, yashil hududlarni ko'paytirishga o'z hissasini qo'shib boradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, tabiatga bo'lgan hurmat, milliy an'analarga tayangan holatda, "Tabiat — bizning onamiz" degan g'oya asosida atrof—muhitni asrashni muqaddas burchimiz sifatida bilishimiz, kelajak avlodlarga etkazishimiz zarur. Ekologik madaniyat atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha insonning bilim, malaka va qadriyatlari majmuasidir. U ekologik bilimlarni egallash, tabiatga hurmat bilan munosabatda bo'lish, atrof-muhitni muhofaza qilishga faol hissa qo'shish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Ekologik madaniyatni shakllantirish yo'llari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- Ta'lim tizimida ekologik bilimlarni keng joriy etish;
- Maktab va oliy ta'lim dasturlariga ekologiya fanlarini kiritish;
- O'quvchilarga ekologik muammolar haqida chuqur tushuncha berish;
- Amaliy mashg'ulotlar orqali ekologik muammolarni hal etish bo'yicha tajriba orttirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. Hasanboyeva O., Abduqodirov A. Ekologik ta'lim va tarbiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
3. Jumaniyozova D. Ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish. – Toshkent: Fan, 2021.
4. Xolmatova G. O'zbekistonning ekologik muammolari va ularning echimlari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.